ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 338 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

Transformational School Leadership and Teacher Performance: A Narrative Literature Review 127
Nilufar Buriyeva Anvar kizi, Axatov Aminjon Tohir ugli,
Sodiqova Marziyaxon Botirjon kizi, Lutfullayeva Moxistara Xayrullo kizi

Pedagogical Model for Improving the Methodological Competence of Future History Teachers Based on Digital Historical Sources 133
Otegenov Berdibay Menglibaevich

Tarbiyalanuvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari va ertakterapiya imkoniyatlari 136
Qosimova Muattarxon Shokirjon qizi

O'qituvchi pedagogik faoliyatida pedagogik mahorat, refleksiv va innovatsion yondashuvning integratsiyasi 140
Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna

Xorijiy tajribalar asosida maktab ta'lim mazmunini takomillashtirish 146
Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Teshayeva Toxira Inomjonovna

Pedagogik muhandislikning metodologik asoslari, kategoriyaviy apparati va yondosh ilmiy-pedagogik yo'nalishlar bilan o'zaro aloqadorligi 151
Nasrullayeva Fatima Azatovna

Рефлексивная подготовка будущих воспитателей к личностно ориентированному взаимодействию с дошкольниками 160
Бозорова Зухра Жураевна

Bo'lajak tarbiyachilarning tasviriy-ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish mazmuni 165
Xazratkulova Gulyora Tojiboyevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili ta'limini loyihalash kompetensiyasini metakognitiv yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi 169
Raupova Navbahor Bahriddinovna

Kursant va talabalarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish va ekstremal sharoitlarda harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning innovatsion yondashuvlari 174
Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich

Talabalarning tadbirkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy zaruriyati 179
Sharipova Guzal Sodiqovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining matematik tasavvurlarini mental yondashuv asosida takomillashtirish: nazariy-metodik sharh 185
Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi

STEAM yondashuvi asosida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi 189
Artikov Abdukaxor

"Korpus detektori" mashqlar tizimi: tuzilishi, bosqichlari va qo'llash metodikasi 196
Bahronov Nodirbek Aliyevich

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongli o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda tabaqalashtirilgan yondashuv (EGRA-U diagnostikasi asosida) 199
Ne'matova Diyora Baxodir qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Ona tili darslarida hamkorlik texnologiyasidan foydalanishning mavjud holati va metodik muammolari 205
Usmonova Yulduz Faxriddin qizi

Grammatik tarjima metodida ona tilidan foydalanishning didaktik xususiyatlari 210
Erkinova Madina Komil qizi

Talabalarda ta'limiy kommunikativlikni rivojlantirishning pedagogik shart sharoitlari 214
Babayeva Maxfuza Abduvaitovna, Ismoilov Bobur Toxirovich

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari 218
Bomurodova Gulhayo Jumayevna

Masalalarni tenglama tuzish yordamida yechimini qurishga o'rgatish metodikasi 223
Ismoilov Bobur Toxirovich, Babayeva Maxfuza Abduvaitovna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash mazmunida argumentatsion nutq: darsliklar, o'quv reja va oliy ta'lim adabiyotining kontent-tahlili 229
Mamatova Marg'uba Ummatqul qizi

Основы паллиативной помощи педагогическая поддержка детей, получающих паллиативную помощь 233
Жузбаев Нурлан Урал угли, Хакимова Гульшода Абдусаламовна

"Pedagogikaning pragmatik aspektlari" modulini kreativ yondashuv asosida o'qitish modeli va ingliz tilidagi o'quv materiallarini tanlash mezonlari 237
Meliqo'ziyeva Zarnigorxon Ikromjon qizi

Gospital sharoitida turli yosh guruhlaridagi bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari 242
S. M. Umarova

Harbiy xizmatchilarda kasbiy faoliyat davomida hissiy kuyish (emotsional burnout) sindromining ijtimoiy-psixologik psixoprofilaktikasi 246
Tursunov Kamariddin G'ulomovich

Использование подходов геймификации при обучении иностранному языку детей 5-6 лет 250
Курбанова Назира Низомиддиновна

Ko'rish imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tiflotexnik vositalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish metodlari 257
Astanova Zumradxon Toxirovna

O'quvchilar xulq-atvoridagi og'ishish ilmiy tadqiqotlar talqini asosida 262
Azimjonova Rushana Rashid qizi

Образ сильной узбекской женщины в творчестве Зульфии 267
Аскарова Наргиза Абдивалиевна, Усманова Самира Зафаровна

Inklyuziv guruhlarda differensiallashtirilgan yozma topshiriqlar tizimini loyihalash tamoyillari 271
D. X. Saydazimova

Maktabgacha ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish va tarbiyachining kreativ kompetentligini oshirish metodlari 275
Odilova Sitora Ergash qizi

Milliy qadriyatlarga asoslangan matnlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va tanqidiy fikrlashini notiqlik faoliyati orqali rivojlantirish 281
Ziyodullayeva Zuhro Faxriddin qizi

Raqamli transformatsiya sharoitida o'qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish modeli 286
Magzumova Lola Turakulovna

Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda seldan foydalanishga tayyorlash muammosining ijtimoiy va metodik qatlamlari 292
Sayfullayeva Ismigul Qodir qizi

Ichki ishlar xodimlarida koping-strategiyani shakllantirish kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli ta'minlovchi omil sifatida 296
Aliboyev Himaydin Fayzulla o'g'li

Psixologik holatni baholash asosida differensial mashqlar orqali badmintonchilarning koordinatsion va texnik tayyorgarligini rivojlantirish 299
Beknazarov Raxat Axmet og'li

Oliy ta'limda biotexnologiya fanini o'qitishning zamonaviy pedagogik asoslari 302
Jumabayeva Aygul Kuatovna, Ametov Yakub Idrisovich

Dialogik nutq o'qitish metodikasining shakllanishi 307
Xamidullayeva Fotima Adxam qizi

Алгоритм развития управленческой компетентности будущих учителей русского языка и литературы на основе обратной связи и коррекции педагогических решений 313
Акмалова Дилдора Тохировна

Эффективные методы развития икт-компетентности педагогов в цифровой образовательной среде... 319
Каримова Наргизахон Яхёевна

Qadimgi Misr va Gretsiya olimlarining muhandislik grafikasi fani yuzasidan izlanishlari 322
Ergasheva Shohista Anvar qizi

Предметно-языковые задания на уроках русского языка в начальной школе Узбекистана..... 324
Худжамова Хуснора Диёр кизи

Musiqa ta'limi dars mashg'ulotlarida interfaol metodlardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari 329
Tuxtasinov Abror Rustamovich

Developing Creative Competence During Pedagogical Practice: an Integrated Model for Future English Language Teachers..... 332
Mukhtorov Mukhiddin Mansur o'g'li

DIALOGIK NUTQ O'QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI

Xamidullayeva Fotima Adxam qizi
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti ta'limi kafedrasi 2-kurs tayanch doktoranti
E-mail: urunova5000@gmail.com
ORCID: 0009-0004-0145-2225

Annotatsiya: Maqolada chet tilini o'qitishda dialogik nutq metodikasining shakllanishi tarixiy va nazariy jihatdan tahlil qilinadi. "Dialog", "dialogik nutq", "monologik nutq", "replika", "dialogik birlik", "muloqot" va "interaksiya" tushunchalarining mazmuni hamda o'zaro farqlari yoritiladi. L. P. Yakubinskiy, M. M. Baxtin, A. A. Leontyev, I. A. Zimnyaya, V. L. Skalkin, E. I. Passov hamda xorijiy metodistlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, dialogik nutqni o'qitishning lingvistik, psixologik, psixolingvistik va kommunikativ asoslari ochib beriladi. Shuningdek, CEFR doirasida belgilangan og'zaki interaksiya mezonlari metodikaning zamonaviy rivojlanish bosqichi sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: dialog, dialogik nutq, replika, muloqot, interaksiya, kommunikativ metod, CEFR.

Abstract: The article examines the historical and theoretical development of methodologies for teaching dialogic speech in foreign language education. It distinguishes between the concepts of dialogue, dialogic speech, monologic speech, conversational turns, dialogic units, communication, and interaction. The views of L. P. Yakubinsky, M. M. Bakhtin, A. A. Leontiev, I. A. Zimnyaya, V. L. Skalkin, E. I. Passov, and international scholars are compared. The analysis explores the development of approaches from linguistic descriptions of dialogue and psychological models of communication to communicative and interaction-oriented methods. Furthermore, the CEFR descriptors for spoken interaction are examined as a contemporary framework for assessing dialogic competence.

Key words: dialogue, dialogic speech, conversational turn, communication, interaction, communicative approach, CEFR.

Аннотация: В статье проводится историко-теоретический анализ становления методики обучения диалогической речи в процессе преподавания иностранных языков. Раскрываются содержание и различия понятий "диалог", "диалогическая речь", "монологическая речь", "реплика", "диалогическое единство", "общение" и "интеракция". На основе сравнительного анализа научных взглядов Л. П. Якубинского, М. М. Бахтина, А. А. Леонтьева, И. А. Зимней, В. Л. Скалькина, Е. И. Пассова и зарубежных методистов рассматриваются лингвистические, психологические, психолингвистические и коммуникативные основы обучения диалогической речи. Кроме того, дескрипторы устного взаимодействия, разработанные в рамках Общеевропейских компетенций владения иностранным языком (CEFR), рассматриваются как современный этап развития данной методики.

Ключевые слова: диалог, диалогическая речь, реплика, общение, интеракция, коммуникативный метод, CEFR.

KIRISH

Chet tilida gapirishni o'rgatish haqida so'z ketganda, "dialog", "dialogik nutq" va "muloqot" tushunchalari ko'pincha bir ma'noda ishlatiladi. Amalda esa ular aynan bir hodisani anglatmaydi. Ikki kishining tayyor savol-javob matnini o'qishi dialog bo'lishi mumkin, biroq bu o'rganuvchida dialogik nutq ko'nikmasi shakllanganini hali anglatmaydi. O'rganuvchi matnsiz vaziyatda suhbatdoshining kutilmagan savoliga javob bera olishi, javobni aniqlashtirishi, o'zi savol berishi va suhbatni davom ettira olishi kerak.

Metodik jihatdan asosiy farq aynan shu nuqtada namoyon bo'ladi. Dialogik nutqni o'qitish metodikasining tarixini bitta metod yoki bitta olim faoliyati bilan bog'lash qiyin. Bu yo'nalish dastlab dialogning til hodisasi sifatida o'rganilishi, keyinchalik muloqotning psixologik tabiati va nutq hosil bo'lish mexanizmlarining izohlanishi, undan so'ng esa chet tilida og'zaki nutqni o'rgatish usullarining ishlab chiqilishi orqali shakllangan. XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, kommunikativ yondashuv dialogik nutqni real vaziyat va kommunikativ maqsad bilan bog'ladi. Keyingi tadqiqotlarda esa suhbatdoshlarning bir-biriga ta'siri, ma'noni aniqlashtirish va fikrni birgalikda shakllantirish jarayoni til o'rganishning muhim mexanizmi sifatida talqin qilindi.

Shu bilan birga, "dialogik nutq" tushunchasining mazmuni ham vaqt o'tishi bilan kengaydi. Dastlab uning navbatma-navbat replikalar orqali tashkil topishi, vaziyatga kuchli bog'liqligi va monologga nisbatan kamroq rejalashtirilishi ko'proq ta'kidlangan bo'lsa, zamonaviy metodikada suhbatni boshqarish, nutqiy navbatni egallash, aniqlashtirish, qayta so'rash, kelishish yoki kelishmaslik kabi interaksion harakatlar ham muhim o'rin egallaydi.

CEFRning 2020-yilda nashr etilgan Companion Volume hujjatida og'zaki interaksiya alohida kommunikativ faoliyat turi sifatida ko'rib chiqilib, conversation, information exchange, goal-oriented co-operation, obtaining goods and services, interviewing va telecommunications kabi shkalalar bo'yicha tavsiflanadi [Council of Europe, 2020: 71–81].

Maqolaning maqsadi dialogik nutqni o'qitish metodikasining shakllanishini lingvistik nazariyadan zamonaviy kommunikativ yondashuvlargacha bo'lgan tarixiy-mantiqiy rivojlanish jarayonida tahlil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi savollarga javob izlanadi:

1. Dialogik nutq bilan bog'liq asosiy terminlar qanday farqlanadi;
2. Dialogik nutqni o'rganish qaysi ilmiy bosqichlardan o'tgan;
3. Ushbu nazariy qarashlar chet tilida dialogik nutqni o'qitish metodikasining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dialogik nutq metodikasini tahlil qilishdan oldin uning terminologik chegaralarini aniqlash zarur. Bu masala faqat termin tanlash bilan bog'liq emas. Terminlarning o'zaro farqlanmasligi metodik maqsadning ham o'zgarib ketishiga olib kelishi mumkin. Masalan, darsda dialog matnining mavjudligi hali dialogik nutqni o'rgatish jarayoni amalga oshirilayotganini anglatmaydi. Dialog ikki yoki undan ortiq suhbatdoshning nutqiy navbatlari almashinuvi asosida tashkil topadigan nutq shaklidir. Dialogning tashqi belgisi gapiruvchilarning almashinuvi bo'lsa, ichki belgisi bir nutqiy harakatning boshqasiga mazmunan bog'liqligidir.

L. P. Yakubinskiyning 1923-yilda e'lon qilingan "O dialogicheskoy rechi" asari dialogni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida maxsus tahlil qilgan dastlabki yirik ilmiy ishlardan biri hisoblanadi. Keyingi nashrlarda ushbu asar Yakubinskiyning tanlangan asarlari to'plamiga ham kiritilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda uning dialogik nutqning elliptikligi, avtomatlashganligi va monologik nutqdan kommunikativ jihatdan farqlanishiga oid kuzatuvlari hanuz muhim ilmiy ahamiyatga ega deb baholanadi [Yakubinskiy, 1986: 17–58].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Replika dialogning muayyan suhbatdoshga tegishli nutqiy bo'lagidir. U bitta so'zdan ham, bir necha gapdan ham iborat bo'lishi mumkin. Muhim jihati uning boshqa replika bilan funksional aloqaga egaligidir. Savol keyingi javob uchun turtki bo'lishi mumkin; iltimos bajarish yoki rad etishga sabab bo'ladi; fikr esa rozilik, e'tiroz yoki qo'shimcha izohni keltirib chiqaradi. Shu ma'noda metodik adabiyotlarda replika-stimul va replika-reaksiya tushunchalari farqlanadi. O'zaro mazmunan bog'langan replikalar dialogik birlikni tashkil etadi. Uning eng oddiy ko'rinishi savol va javobdan iborat. Biroq dialogik birlikni faqat savol-javob bilan cheklash to'g'ri emas. Taklif va uning qabul qilinishi, iltimos va unga bildirilgan munosabat, xabar va unga berilgan baho, fikr va e'tiroz ham dialogik birlikni tashkil etishi mumkin. Demak, o'rganuvchilarga dialogik nutqni o'rgatish faqat so'roq gaplarni tuzish va ularga grammatik jihatdan to'g'ri javob berishni emas, balki turli kommunikativ harakatlar o'rtasidagi aloqani anglashni ham talab etadi. Dialogik nutq dialogga qaraganda nutqiy faoliyatga yaqinroq tushunchadir. U suhbatdoshlarning bir-birining replikasini qabul qilishi, tushunishi, unga javob berishi va keyingi nutqiy harakatini suhbatning rivojiga mos ravishda shakllantirishini qamrab oladi. Shu sababli dialogni nutqning tashkiliy shakli sifatida qarash mumkin bo'lsa, dialogik nutq shu shaklni yuzaga keltiruvchi nutqiy jarayondir.

Monologik nutq esa bir gapiruvchining nisbatan davomli, ichki jihatdan izchil va ko'proq mustaqil tashkil etilgan nutqidir. Dialog bilan monolog o'rtasidagi farqni faqat "ikki kishi gapiradi" va "bir kishi gapiradi" mezonlariga keltirib chiqarish masalani soddalashtiradi. Dialogda suhbatdoshning reaksiyasi nutqning keyingi yo'nalishini tezda o'zgartirishi mumkin. Monologda esa gapiruvchi mazmunni uzoqroq vaqt davomida mustaqil boshqaradi. Shu bilan birga, real muloqotda sof dialog va sof monologning oraliq shakllari ham uchraydi: dialogdagi bitta replika ba'zan uzun monologik nutqiy bo'lakka aylanishi mumkin. Muloqot dialogik nutqqa qaraganda kengroq tushunchadir. Unda nutqiy shakldan tashqari maqsad, motiv, suhbatdoshlarning o'zaro munosabati, vaziyat, ijtimoiy rol va noverbal vositalar ham ishtirok etadi.

A. A. Leontyevning muloqot psixologiyasiga oid ishlari muloqotni maqsad va motivga ega faoliyat sifatida o'rganish uchun muhim nazariy asos yaratgan. Uning "Psixologiya obshcheniya" nomli kitobi 1974-yilda Tartu davlat universitetida nashr etilgan [Leontyev, 1974: 1–218]. Interaksiya esa suhbatdoshlarning bir-birining nutqiga ta'sir ko'rsatishi va mazmunni birgalikda shakllantirishini ifodalaydi.

Zamonaviy ikkinchi tilni o‘zlashtirishga oid tadqiqotlarda aynan shu tushuncha markaziy o‘rin egallaydi. Interaksiya jarayonida o‘rganuvchi shunchaki o‘z fikrini bildirish bilan cheklanmaydi: u suhbatdoshiga moslashadi, tushunmagan jihatlarini aniqlashtiradi va zarur hollarda o‘z fikrini qayta shakllantiradi.

1-jadval: **Dialogik nutq metodikasiga oid asosiy tushunchalar, ularning mazmuni va metodikadagi o‘rni**

Tushuncha	Asosiy mazmun	Dialogik nutq metodikasidagi o‘rni
Dialog	Replikalar almashinuvi asosidagi nutq shakli	Mashq va namuna materiali bo‘lishi mumkin
Replika	Bir suhbatdoshning alohida nutqiy navbati	Dialog qurilishining tarkibiy qismi
Dialogik birlik	O‘zaro bog‘langan ikki yoki undan ortiq replika	Kommunikativ reaksiyani o‘rgatish birligi
Dialogik nutq	Suhbatdoshlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liq nutqiy faoliyat	Metodikaning asosiy o‘rgatish obyekti
Monologik nutq	Bir gapiruvchining nisbatan davomli va mustaqil nutqi	Dialogik nutqdan rejalashtirish va interaksiya jihatidan farq qiladi
Muloqot	Maqsadli ijtimoiy-kommunikativ aloqa jarayoni	Dialogik nutq sodir bo‘ladigan keng jarayon
Interaksiya	Suhbatdoshlarning o‘zaro ta’siri va mazmunni birga qurishi	Zamonaviy dialogik kompetensiyaning markaziy jihati

Bu farqlar maqolaning keyingi tahlili uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki metodika tarixida barcha olimlar bir xil tadqiqot obyektini o‘rganmagan: Yakubinskiy dialogning tuzilishiga ko‘proq e’tibor qaratgan bo‘lsa, Leontyev muloqotni faoliyat sifatida talqin qilgan; Zimnyaya gapirishning psixologik mexanizmlarini, Skalkin dialogik nutqni bevosita o‘qitish masalalarini, Passov esa chet tilidagi muloqotni kommunikativ metod doirasida tizimlashtirish masalalarini tadqiq etgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dialogik nutq metodikasining nazariy ildizlarini L. P. Yakubinskiy asarlarisiz tushuntirish qiyin. Uning “O dialogicheskoy rechi” maqolasi 1923-yilda “Russkaya rech” to‘plamida chop etilgan. Keyingi ilmiy adabiyotlarda ushbu asar dialogning ijtimoiy, psixologik va lingvistik xususiyatlarini birgalikda o‘rganishga qaratilgan dastlabki maxsus tadqiqotlardan biri sifatida baholanadi [Yakubinskiy, 1923: 96–194; Yakubinskiy, 1986: 17–58]. Yakubinskiy uchun dialogning asosiy belgilaridan biri replikalarning o‘zaro bog‘liqligidir. Dialogda bir kishining nutqi ikkinchi suhbatdoshning gapidan ajralgan holda to‘liq tushunilmaydi. Javob ko‘pincha oldingi replikaga moslashadi. Shu sababli dialogik nutq vaziyatga kuchli bog‘langan, tezkor va ko‘p hollarda oldindan to‘liq rejalashtirilmagan bo‘ladi. Uning nutqiy avtomatizm haqidagi kuzatuvlari ham metodika uchun muhim ahamiyatga ega: real suhbatda gapiruvchi har bir grammatik shaklni ongli ravishda alohida rejalashtirishga ulgurmasligi mumkin [Yakubinskiy, 1986: 17–58]. Bu fikrdan pedagogik jihatdan muhim xulosa kelib chiqadi: o‘rganuvchining grammatik qoidalarni bilishi ularni dialog jarayonida avtomatik qo‘llay olishini kafolatlamaydi.

Dialogik nutqda qoidalarni eslash bilan bir vaqtda suhbatdoshni tinglash, mazmunni tushunish va javobni shakllantirish talab etiladi. Metodikaning keyingi rivojlanishida avtomatlashgan nutqiy ko‘nikmalarga katta e’tibor qaratilishining sabablaridan biri ham aynan shu muammo bilan bog‘liq.

M. M. Baxtinning dialogizm haqidagi qarashlari masalani boshqa nazariy darajaga olib chiqdi. Baxtin nutqni alohida va izolyatsiyalangan gaplar majmui sifatida emas, balki muayyan vaziyatda yuzaga keladigan nutqiy ifodalar orqali talqin qiladi. Har bir ifoda kimdandir keladi, muayyan tinglovchiga yo‘naltiriladi va avvalgi nutqiy harakatlarga munosabat bildiradi. Uning “adreslanganlik” tushunchasi ayniqsa muhimdir: real nutq doimo muayyan yoki tasavvur qilinayotgan tinglovchiga yo‘naltiriladi [Bakhtin, 1986: 60–102].

Yakubinskiy va Baxtin qarashlari o‘rtasida umumiy jihat mavjud: har ikkala olim ham nutqni suhbatdoshdan ajratilgan til birliklari majmui sifatida izohlamaydi. Biroq ularning tahlil darajasi bir xil emas. Yakubinskiy dialogning og‘zaki shakli, replikalarning tezkor almashinuvi va uning psixologik sharoitlariga ko‘proq e’tibor qaratadi.

Baxtin qarashlarida esa dialogiklik ancha keng tushuncha bo‘lib, har qanday nutqiy ifodaning boshqa nutqiy ifodalar bilan munosabatini qamrab oladi. Shu sababli Baxtinning dialogizm haqidagi qarashlarini bevosita chet tilini o‘qitish metodikasi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Uning ilmiy ahamiyati dialogik nutqning adresatga yo‘naltirilganligi va javobga ochiq tabiatini nazariy jihatdan tushuntirib berishidadir. Dialogning tuzilishini bilish uni qanday o‘rgatish kerakligini hali to‘liq tushuntirib bermaydi. Keyingi muhim masala inson nutqni qanday hosil qilishi va muloqot jarayonida uni qanday boshqarishi bilan bog‘liq bo‘ldi.

A. A. Leontyev muloqotni inson faoliyatining o‘ziga xos shakli sifatida o‘rganishga katta hissa qo‘shdi. Bu qarash dialogik nutq metodikasi uchun oddiy, ammo muhim xulosani yuzaga keltiradi: gapirish mashqi aniq kommunikativ maqsadga ega bo‘lishi kerak. Real muloqotda inson grammatik shaklni qo‘llash uchungina gapirmaydi; u ma’lumot olish, suhbatdoshga ta’sir ko‘rsatish, tushuntirish, kelishish yoki boshqa kommunikativ ehtiyojni qondirish uchun gapiradi.

I. A. Zimnyaya esa chet tilida gapirishni psixologik va psixolingvistik jihatdan maxsus tahlil qilgan. Uning 1985-yilda ikkinchi nashri chop etilgan "Psixologicheskie aspekty obucheniya govoreniyu na inostrannom yazyke" nomli kitobida gapirish nutqiy faoliyat turi sifatida ko'rib chiqiladi, fikrning shakllanishi, til vositalarining tanlanishi hamda fonetik va grammatik tuzilish jarayonlari tahlil qilinadi. Zimnyayaning yondashuvi tayyor dialogni takrorlash bilan mustaqil dialogik nutq o'rtasidagi farqni tushunishga yordam beradi. Tayyor matnni takrorlashda nutq mazmunining katta qismi oldindan berilgan bo'ladi. Mustaqil muloqotda esa o'rganuvchi kommunikativ niyatni mazmunga aylantirishi, zarur til birliklarini tanlashi va bu jarayonni vaqt bosimi ostida amalga oshirishi kerak. Demak, dialogik nutqni shakllantirishda reproduktiv mashqlar zarur bo'lishi mumkin, biroq ular yakuniy maqsad hisoblanmaydi [Leontyev, 1974: 1–218; Zimnyaya, 1985: 1–160].

Bu bosqichda dialogik nutqni o'rganish "dialog qanday tuzilgan?" degan savoldan "inson dialog jarayonida qanday gapiradi?" degan savolga o'tdi. Aynan mana shu o'tish keyinchalik maxsus metodik tizimlarning ishlab chiqilishiga zamin yaratdi. Dialogik nutqni o'qitish tarixida V. L. Skalkinning ishlari alohida o'rin tutadi. Uning 1989-yilda Kiyevda chop etilgan "Obuchenie dialogicheskoy rechi (na materiale angliyskogo yazyka)" asari nomining o'ziyoq dialogik nutqni umumiy "gapirish" faoliyatining ikkilamchi masalasi emas, balki mustaqil metodik obyekt sifatida ko'rganini ko'rsatadi [Skalkin, 1989: 1–158].

Skalkin yondashuvida dialogik nutqning tashkiliy birliklari, nutqiy vaziyat, suhbatdoshlar replikalarining funksiyasi va dialogga tayyorlash mashqlari muhim o'rin egallaydi. Bu yondashuvda nazariya metodik amaliyotga yaqinlashadi. Agar Yakubinskiy dialogning qanday hodisa ekanini tushuntirgan bo'lsa, Skalkin uchun asosiy masala o'quvchini ushbu nutq shakliga qanday tayyorlash mumkinligi hisoblanadi. Bu metodik o'tishda replika va dialogik birlik tushunchalari amaliy ahamiyat kasb etadi. O'rganuvchiga birdaniga uzun dialog tuzish topshirilmaydi. Dastlab alohida kommunikativ reaksiyalar shakllantiriladi: savolga mos javob berish, xabarga munosabat bildirish, taklifni qabul qilish yoki rad etish, aniqlashtiruvchi savol berish. Keyinchalik ushbu birliklar kengroq suhbatga birlashtiriladi. Shu jihatdan dialogik nutq metodikasining dastlabki tizimli shakllarida "pastdan yuqoriga" tamoyili kuzatiladi: replika → dialogik birlik → kichik dialog → kengroq muloqot.

Biroq bu modelning o'ziga xos cheklovlari ham mavjud. Agar o'qitish faqat oldindan belgilangan replika qoliplarini birlashtirish bilan cheklansa, o'rganuvchi real suhbatdagi kutilmagan vaziyatlarga yetarlicha tayyor bo'lmasligi mumkin. Keyingi kommunikativ metodlar aynan shu muammoga yechim izlaydi [Skalkin, 1989: 1–158].

XX asrning ikkinchi yarmida chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning shakllanishi dialogik nutq metodikasini sezilarli darajada o'zgartirdi. E. I. Passovning "Kommunikativny metod obucheniya inoyazychnomu govoreniyu" asari 1991-yilda ikkinchi nashrda chop etilgan bo'lib, unda gapirishni o'qitish kommunikativ faoliyat bilan bog'liq yaxlit tizim sifatida yoritiladi [Passov, 1991: 20–41]. Passov yondashuvida vaziyatlilik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Nutqiy birlikni o'rgatishda uni maqsad va vaziyatdan ajratib qo'yish yetarli emas. Masalan, "Menga yordam bering" shaklini grammatik mashq orqali o'zlashtirish bilan uni real vaziyatda kerakli vaqtda qo'llash bir xil ko'nikma hisoblanmaydi. Dialogik nutq metodikasi aynan shu nuqtadan boshlab til shakli bilan uning kommunikativ vazifasini yanada yaqinroq bog'lay boshlaydi [Passov, 1991: 20–41].

G'arb metodikasida ham shunga o'xshash jarayon kechdi. William Littlewoodning 1981-yilda nashr etilgan Communicative Language Teaching asarida grammatik shakllarni kommunikativ funksiyalar bilan bog'lash, funksional-kommunikativ faoliyatlar va ijtimoiy interaksiya mashqlari alohida ko'rib chiqiladi. Muallif kommunikativ yondashuvni grammatikani inkor etuvchi metod sifatida emas, balki grammatik bilimlarni real ma'no almashinuvi bilan bog'lashga qaratilgan yondashuv sifatida talqin qiladi [Littlewood, 1981: 22–64]. Bu o'zgarish dialogik nutq metodikasi uchun prinsipial ahamiyatga ega edi.

Tayyor dialogni o'qish yoki yodlash asta-sekin oraliq vosita sifatida qarala boshlandi. Yakuniy natija esa yangi vaziyatda kommunikativ maqsadga muvofiq gapira olish qobiliyati bilan belgilanadi. Martin Bygate 1987-yilda nashr etilgan Speaking kitobida gapirishni faqat til birliklarini nutqda qo'llash jarayoni sifatida emas, balki interaksiya ko'nikmalari bilan bog'liq faoliyat sifatida ham ko'rib chiqadi. Kitobda interaction activities va interaction skills in oral language methodology mavzulariga alohida bo'limlar ajratilgani o'sha davrga kelib og'zaki nutq metodikasida suhbatni boshqarish masalasi mustaqil o'rin egallay boshlaganini ko'rsatadi. Shunday qilib, kommunikativ bosqich dialogik nutqni o'rgatish maqsadini o'zgartirdi: o'rganuvchi shunchaki "to'g'ri dialogni aytib berishi" emas, balki muayyan kommunikativ vaziyatni til vositalari yordamida hal qila olishi kerak bo'ldi [Bygate, 1987: 22–41; 67–93].

Keyingi bosqich ikkinchi tilni o'zlashtirish nazariyalari bilan bog'liq. Michael Longning interaksion yondashuvida suhbat shunchaki o'zlashtirilgan bilimlarni namoyish etish vositasi emas. Aksincha, o'zaro muloqotning o'zi tilni o'rganish uchun sharoit yaratadi. Suhbat davomida tushunmovchilik yuzaga kelganda, ishtirokchilar ma'noni aniqlashtiradi, qayta so'raydi, fikrini boshqacha ifodalaydi yoki suhbatdoshining nutqiga moslashadi. Longning 1996-yilda takomillashtirilgan interaksiya gipotezasi ma'no bo'yicha kelishuv, tushunarli til materiali (input), qayta aloqa (feedback) va o'rganuvchining ichki til tizimi o'rtasidagi bog'liqlikka e'tibor qaratadi.

Alison Mackeyning 1999-yildagi empirik tadqiqoti esa suhbatdagi interaksiya va ikkinchi til rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatni tajriba asosida o‘rgandi. Tadqiqotda turli interaksion sharoitlarning ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘rganuvchilarda so‘roq shakllarining rivojlanishiga ta’siri tekshirilgan [Long, 1996: 413–468; Mackey, 1999: 557–587]. Bu bosqichda dialogik nutq metodikasining tadqiqot obyekti yanada kengaydi. Endilikda faqat savol berish va javob qaytarish emas, balki suhbatdoshning fikrini tushunishni tekshirish, aniqlashtirishni so‘rash, noto‘g‘ri tushunilgan fikrni qayta ifodalash va suhbatdoshga moslashish ham o‘qitishning muhim tarkibiy qismlariga aylandi.

Scott Thornbury va Diana Slade tomonidan yozilgan Conversation: From Description to Pedagogy kitobi ushbu o‘tishni yanada aniqroq ko‘rsatadi. Asarda suhbatning lug‘aviy, grammatik va diskurs xususiyatlari, ikkinchi tilda suhbat kompetensiyasining rivojlanishi hamda suhbatni o‘qitish tarixi alohida bo‘limlarda yoritilgan. Mualliflar yagona universal “conversation teaching method” mavjudligini ta’kidlamaydi, aksincha, o‘qitish modeli kontekst, o‘rganuvchi va ta’lim maqsadlariga qarab o‘zgarishi kerakligini asoslaydi.

Goh va Burnsning Teaching Speaking: A Holistic Approach asari esa gapirishni o‘qitishda lingvistik bilimlar, nutqiy ko‘nikmalar, kommunikativ strategiyalar va pedagogik topshiriqlarni yagona tizimga birlashtirishga intiladi. Ularning metodik modeli gapirishni bir martalik “speak” topshirig‘i sifatida emas, balki tayyorgarlik, amaliyot va refleksiyani qamrab oluvchi jarayon sifatida talqin qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ham dialogiklik faqat ikki kishining o‘zaro gaplashishi darajasida talqin qilinmaydi. Dialogik savollar, suhbat tahliliga asoslangan o‘qitish va o‘quvchilar o‘rtasidagi interaksiya o‘rganuvchini tayyor javoblarni takrorlashdan ko‘ra faolroq muloqotga jalb qilishi mumkin. Biroq dialogic teaching, classroom discussion va foreign-language dialogic speech methodology tushunchalarini bir-biriga aralashtirmaslik lozim. Birinchisi keng pedagogik modelni, ikkinchisi sinf diskursining shaklini, uchinchisi esa chet tilida muayyan nutqiy ko‘nikmani shakllantirish metodikasini anglatadi.

CEFR ushbu tarixiy rivojlanishning bevosita muallifi yoki boshlang‘ich nuqtasi emas. Uni dialogik nutq metodikasining shakllanish manbasi sifatida ko‘rsatish to‘g‘ri bo‘lmaydi. Uning ahamiyati shundaki, CEFR oldingi nazariy va metodik rivojlanish davomida shakllangan kommunikativ qarashlarni amaliy deskriptorlar orqali tavsiflash imkonini beradi.

2020-yilgi Companion Volume nashrida og‘zaki interaksiya alohida kommunikativ faoliyat sifatida ko‘rsatiladi. Unda umumiy og‘zaki interaksiya bilan bir qatorda conversation, informal/formal discussion, goal-oriented co-operation, obtaining goods and services, information exchange, interviewing va telecommunications kabi faoliyat turlari ajratilgan. Interaksiya strategiyalariga esa nutqiy navbatni egallash, hamkorlik qilish va aniqlashtirishni so‘rash kabi jarayonlar kiritilgan. Bu tasnif metodika uchun muhim o‘zgarishni ifodalaydi. O‘rganuvchining dialogik nutqdagi kompetensiyasi u biladigan grammatik konstruksiyalar soni bilan emas, balki muayyan kommunikativ harakatlarni qay darajada mustaqil bajara olishi bilan tavsiflanadi [Council of Europe, 2020: 71–81]. O‘rganilgan manbalarni yagona mantiqiy zanjirda tahlil qilish dialogik nutq metodikasining rivojlanishida ikkita asosiy o‘zgarishni ko‘rsatadi.

Birinchidan, tadqiqot obyekti asta-sekin kengayib borgan. Yakubinskiy qarashlarida dialogning shakliy va funksional xususiyatlari markaziy o‘rinda tursa, Leontyev va Zimnyaya tadqiqotlarida insonning muloqot va gapirish faoliyati oldingi o‘ringa chiqadi. Skalkin qarashlarida ushbu nazariyalar metodik birliklar va mashqlar tizimiga aylantiriladi. Passov hamda kommunikativ metod vakillarida esa asosiy e’tibor real nutqiy vazifalarni bajarishga ko‘chadi. Interaksiya nazariyasida suhbatdoshlarning o‘zaro ta’siri til rivojlanishining muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, dialogni o‘rgatish maqsadida ham sezilarli o‘zgarish kuzatiladi. Dastlabki metodik amaliyotlarda “dialogni to‘g‘ri tuzish” yetakchi maqsad sifatida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvlarda maqsad ancha murakkablashdi: o‘rganuvchi suhbatdoshning replikasini tushunishi, tezkor javob berishi, zarur hollarda javobini o‘zgartirishi, fikrni aniqlashtirishi va suhbatni davom ettira olishi kerak. Shu o‘rinda dialog, dialogik nutq va dialogik kompetensiyani aynan bir tushuncha sifatida qabul qilish metodik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Darslikda o‘nlab dialoglar mavjud bo‘lishi mumkin, biroq o‘rganuvchi faqat ularni takrorlash bilan cheklansa, erishilgan natija reproduktiv darajada qoladi. Dialogik nutq ko‘nikmasi esa o‘rganuvchi tayyor namunaga tayanmasdan ham suhbatni davom ettira va boshqara olganida namoyon bo‘ladi.

Bygate, Thornbury va Slade, shuningdek, Goh va Burnsning yondashuvlari klassik dialog metodikasining mazmunini kengaytiradi. Ushbu tadqiqotlarda og‘zaki nutq til birliklarini qo‘llashdan tashqari, suhbatni tashkil etish, nutqiy navbatlarni almashish va kommunikativ strategiyalardan foydalanishni ham talab qiladigan faoliyat sifatida talqin etiladi. Shu sababli gapirish ko‘nikmasini faqat monologik chiqish orqali baholash dialogik kompetensiyani to‘liq aniqlash imkonini bermaydi.

Zamonaviy sinf tadqiqotlari ham ushbu masalaning dolzarbligini ko‘rsatadi. Masalan, dialogik savollar yoki suhbat tahliliga asoslangan o‘qitish o‘rganuvchini tayyor javoblarni takrorlashdan ko‘ra faolroq muloqotga jalb qilishi mumkin. Biroq dialogic teaching, classroom discussion va foreign-language dialogic speech methodology tushunchalarini bir-biriga aralashtirmaslik lozim. Birinchisi keng pedagogik modelni, ikkinchisi sinf diskursining shaklini, uchinchisi esa chet tilida muayyan nutqiy ko‘nikmani shakllantirish metodikasini anglatadi.

XULOSA

Dialogik nutqni o'qitish metodikasi tayyor holda shakllangan alohida metod emas. Uning rivojlanishi bir nechta ilmiy yo'nalishlarning izchil taraqqiyoti natijasidir.

L. P. Yakubinskiy dialogning o'ziga xos nutqiy shakl sifatidagi xususiyatlarini, xususan, replikalarning o'zaro bog'liqligi va nutqning vaziyatga aloqadorligini tahlil qilishga asos soldi.

M. M. Baxtinning dialogizm nazariyasi nutqiy ifodaning adresatga yo'naltirilganligi va javob bilan bog'liqligini kengroq nazariy doirada yoritdi.

A. A. Leontyev muloqotni maqsadli faoliyat sifatida, I. A. Zimnyaya esa gapirishni psixologik va psixo-lingvistik mexanizmlarga ega nutqiy faoliyat sifatida izohladi.

V. L. Skalkin ishlarida dialogik nutq bevosita metodik tadqiqot obyektiga aylandi. Replika, dialogik birlik, nutqiy vaziyat va mashqlar tizimi o'qitish jarayoniga tatbiq etildi.

E. I. Passov hamda kommunikativ yondashuv vakillari ushbu tizimni kommunikativ vazifalar va real nutqiy vaziyatlar bilan bog'ladilar. Keyingi interaksiya nazariyalari esa suhbatni nafaqat o'zlashtirilgan til vositalarini qo'llash, balki til rivojlanishi sodir bo'ladigan jarayon sifatida ham talqin qilish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bakhtin M. M. Speech Genres and Other Late Essays. – Austin: University of Texas Press, 1986. – 177 p.
2. Bygate M. Speaking. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 121 p.
3. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – 278 p.
4. Goh C. C. M., Burns A. Teaching Speaking: A Holistic Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
5. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981. – 108 p.
6. Long M. H. The role of the linguistic environment in second language acquisition // Handbook of Second Language Acquisition / W. C. Ritchie, T. K. Bhatia (eds.). – San Diego: Academic Press, 1996. – P. 413–468.
7. Mackey A. Input, interaction, and second language development: An empirical study of question formation in ESL // Studies in Second Language Acquisition. – 1999. – Vol. 21, No. 4. – P. 557–587.
8. Thornbury S., Slade D. Conversation: From Description to Pedagogy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
9. Зимняя И. А. Психологические аспекты обучения говорению на иностранном языке. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1985. – 160 с.
10. Леонтьев А. А. Психология общения. – Тарту: Тартуский государственный университет, 1974. – 218 с.
11. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.
12. Скалкин В. Л. Обучение диалогической речи (на материале английского языка): пособие для учителей. – Киев: Радянська школа, 1989. – 158 с.
13. Якубинский Л. П. О диалогической речи // Русская речь. – 1923. – Вып. 1. – С. 96–194.
14. Якубинский Л. П. О диалогической речи // Избранные работы: Язык и его функционирование. – М.: Наука, 1986. – С. 17–58.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.